MAKTAB MUSIQA MADANIYATI O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI QO‘LLASHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI.

Omonov Xasan Sulaymonovich,
Musiqa madaniyati fakulteti dekani, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda musiqa madaniyati darslarini olib borishda zamonaviy yondashuv asosida nutq hosil qilish qonuniyatlarini qo‘llash bilan birga bolalar bilan musiqiy mashg‘ulotlarida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter, repertuar, tovush, diapazon, qo‘shiq, maktab,model, rizonator, kuy, nota, ovoz, mashq, sintezator.

Takomillashib borgan nutq hosil bo‘lish modeli, tabiiyki nutq sintezatori bo‘lgan, so‘zlashuvchi mashinalar asosida yotadi.

Odam nutqini tushunuvchi mashinalarni yaratish muammosiga yondashish, bu sohada ish olib boruvchi tadqiqotchilarni diqqat e’tiborini ko‘proq o‘ziga jalb etmoqda.

Bunday yondashuv asosida nutq hosil bo‘lish qonuniyatlarini qo‘llash nutq tovush to‘lqini asosida nutq hosil qiluvchi traktni va qo‘zg‘atuvchi manba tavsifini asosiy ohang chastotasi bundan tashqari traktni ko‘ndalang kesilma maydoni, traktni alohida bo‘shliq chastotalari formatlari, antirezonaks doirasi va boshqa parametrlarni va odam nutqini anglash qonuniyatlarini qo‘llash kabi jarayonlar yotadi. Shuning uchun birinchi navbatda, bolalar bilan musiqiy mashg‘ulotlar o‘tkazganda, ularda musiqaga nisbatan moyillik hissiyotlarini rivojlantirish zarur. To‘g‘ri tanlangan va badiiy mahorat bilan ijro etilgan qushiq repertuari bu masalani muvaffaqiyatli yechishga yordam beradi. Faol kuylash orqali bolalarda musiqaga qiziqish mustahkamlanib, musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi.

Qo‘shiq ijro etish jarayonida bolalar musiqa tilini o‘rganishda, bu esa o‘z navbatida ularda musiqani anglash darajasini ko‘taradi. Asta-sekinlik bilan ular ashulani janr asosini tushunib boradilar. Ularda musiqadagi, tembr, balandlik va ritmik o‘zgarishlarni his etadilar.

Kichik maktab yoshidagi bola nafaqat musiqa nutqini tilini bilibgina qolmay, balki uni ijro faoliyatida tushungan holda faol qo‘llay boshlaydi. Bu tadqiqot maktab o‘quvchilarida ashula aytish ovozini rivojlanishiga oid vazifalarni ko‘rib chiqilishiga bag‘ishlangan qo‘llanmalar siklini davom ettiradi. 7-8 yoshdagi bolalarda ovoz va eshitish qobiliyatini yoshga oid xususiyatlar bolani umumiy rivojlanishini 7-yilida, oliy asab faoliyati takomillashib, uni eshitish qobiliyati faoliyati, ovoz apparatini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Lekin, ovoz apparati ilgarigidek o‘zini nozikligi va tez jarohatlanishi bilan ajralib turadi. Bo‘g‘iq, ovoz bog‘lamlari bilan hali yetarilicha rivojlanmagan. Bog‘lamlar kalta, tovush juda zaif boladi. U rezonatorlar yordamida kuchayadi. Ko‘krak (pastki) rezonator, boshnikiga (yuqorigi) qaraganda sustroq rivojlangan.

Shuning uchun 6-7 yoshdagi bolani ovozi kuchsiz, lekin shunga qaramay ba’zida jarangli bo‘ladi. Tovushni tezlatishni oldini olish zarur, chunki bunday paytda bolalarda unga mos bo‘lmagan, past ohang rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalarga nisbatan keng diapazonda (re-do^2) kuylashlari mumkin.

Past tovushlar nisbatan tarang jaranglaydi, shuning uchun bolalar bilan ishlaganda qulay tessituradagi ashulalarni, ya’ni past tovushlar o‘tuvchi bo‘lib, yuqori tovushlar ko‘proq uchrashi kerak bo‘lgan diapazonni qo‘llash zarur. 6-7 yoshdagi bolalar uchun qo‘lay (namunali) tovushlar (mi) fa-si hisoblanadi.

Ayni shu diapazonda jaranglash yengil, tabiiydir. Birinchi oktavagacha bo‘lgan tovush og‘ir tarang jaranglaydi, shuning uchun undan chetlanish zarur.

Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan muntazam shug‘ullanib turish natijasida 3-sinfga yetgach, bolalar balandligi jihatdan keskin farq qiluvchi tovushlarni, yuqori ovozdagi va tinch musiqani yetarli darajada intonatsiyalay oladilar, murakkab bo‘lmagan ritmik suratlarni qarsak, harakat, metallafonda

chalish orqali ko‘rsata oladilar, tembrga qarab musiqa asboblarini ajarata oladilar. 7-yoshda bolalar musiqiy rivojlanishi asosiga, musiqa mashg‘ulotlarida faol bo‘lish mustaqil musiqiy faoliyatda tashabbuskorlik ko‘rsatishlari zarur bo‘lgan ko‘nikmalar kiradi.

Lekin, umumiy musiqiy rivojlanish, darajasi shu xususida musiqiy eshitish qobiliyati darajasi, musiqiy xotira, ashula aytish kunikmalari 7-yoshdagi bolalarda juda xilma-xildir. Ulardan ba’zilari musiqani 3-4 tovush doirasida to‘g‘ri ohanglay oladilar. Lekin hali monoohangda, past yoki baland, soxta kuylaganlar hali yo‘q emas. Bu hol pedagogni ishini qiyinlashtiradi, chunki u har bir bolaga yetarli darajada toza kuylashni o‘rgatishi va shuni natijasida hamma bolalar ma’lum bir hajmda turg‘un kuylash bilimlariga ega bo‘lishlariga erishishlari zarur.

“Boshlang‘ich sinflarda tarbiya va ta’lim dasturi” bolalar uchun musiqa yo‘nalishida qo‘yidagi vazifalarni belgilab beradi. “Bolalarni ifodali, tangliksiz, re-do diopazonida yengil tovushda kuylash, ashula boshida nafas olish, musiqa jumlalari orasida so‘zlarni dona-dona etib talaffuz qilish, ashulani o‘z vaqtida boshlab tugatishni o‘rgatish zarur. Ohangni to‘g‘ri yetkazib berishni davom etish, metsso forte (meyordagi baland tovushda), va piano (sekin) kuylashni turli tezliklarda mustaqil (musiqa asbobi jo‘rligida, tarbiyachi bilan, musiqa asbobisiz) amalga oshirishni o‘rgatish. Oldin o‘rganilgan ashulalarni solo ijro etishni o‘rgatish” .

1- sinf oxirida bolalar mustaqil ravishda balandligini ajrata olishlari zarur, to‘g‘ri va notug‘ri aytilgan ashulani eshitish orqali ajratish.

Bundan tashqari “dastur” bolalarni ijodiy tashabbuskorligi bilan bog‘liq vazifalarni yechishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Afsuski, ba’zi bir amaliy qo‘shiq aytish bo‘yicha dastur vazifalarini yechishga boshqa rasmiyatchilik bilan yondashadilar. Musiqiy repertuar bayramda qo‘llanilishi uchun o‘rganiladi. Bolalar har bir ashulani taxminan ijro etadilar. Intonatsiyani ham taxminan tanlaydilar, chunki ma’lum bir uslubiy ishlanmalarni yo‘qligi sababli ongli ravishda anglash va ongda tiklash qiyin

bo‘ladi. Ashula mazmunini uning asl ma’nosini bilmay, taxminan tushuntirishadi. Agar bolalar ijrosida “pashni” (haydalgan erlar) so‘zini o‘rniga “bashni” (minoralar) so‘zi qo‘llanilsa, bunga hayron bo‘lish kerak emas.

Shuning uchun musiqa rahbarlari o‘z ishlarida bolalar bilan doimo musiqiy qobiliyat va ovozni rivojlantiruvchi mashqlarni qo‘llashlari lozim. Bu kitobda keltirilgan ashula - mashqlar ba’zida, alohida ovoz apparatini harakatlarini avtomatlashtirishga imkon tug‘diradi, chunki ular qaytariladigan qisqa kuylarga asosan tuzilgan. Mashqlarni anglash jarayonida, bolalar, kuyga oid turli xil harakatlarni to‘g‘ri bajarishga va shu yoshdagi bolalarni ashulalar repertuarida uchraydigan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan intonatsion ishlanmalarni qo‘llashga harakat qiladilar. Bu intonatsion ishlanmalar bolalarga nisbatan murakkab ashulalarni o‘rganishni yengillatadi.

Maktab yoshidagi bolalarni tushunish va anglash xususiyatlarini inobatga olib, o‘yin mazmuniga ega bo‘lgan qisqa ashulalardan tashkil topgan mashqlarga diqqat-e’tiborni qaratish zarur. Mashqlar tovushlarni mos kelishi va turli-tumanligi, kuylarni ishlanilishi, yorqin musiqiy obrazlar bilan ajralib turadilar.

Musiqa faoliyatini turlarini kompleks ta’sirga ega bo‘lgan mashqlar (tinglash, kuylash, musiqiy-ritmik harakatlar) qo‘llaniladi. Bularning hammasi bolalarni eshitish xotirasiga mos keluvchi ashulalar intonatsiyasini mustahkamlanishiga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan ashula-mashqlar ovozni yengil jaranglashiga, ashula ijrosi paytida intonatsiyani toza bo‘lishiga, bola ovozi diopazonini kengaytirish uchun qilingan, ishlarni yengillatishga, qo‘shiq matnini aniq talaffuz qilishga erishishga yordam beradi.

1-sinfda bolalar yuqori va past tovushlar bilan tanishadilar.

2-sinfda bu bilimlar o‘rta tovushlar kvinta doirasida ularni eshita bilish tasavvurlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bolalar nafaqat tovushlarni kuylaydilar, balki flapyalegrafga qo‘ng‘uroqlarni yassi tasavvurini (baland-o‘rta-past) chiqaradilar, metallafonda tovushlarni ijro etadilar (yoritadilar).

7-yoshdagi bolalar eshitish orqali kuyni yo‘nalishini, ularni sakrashlarini aniqlaydilar, flapelegrafga (doirachalar orqali) kuyni suratini chiqaradilar, metallofonda ijro etish bilan kuylaydilar. Bolalarni uzun va qisqa tovushlarni ishonch bilan farqlay olishlari, ashulani ritmik suratini aniq kuylab berishlari, qo‘llari bilan tovushlarni almashuvini ko‘rsatib bera olishlari (qo‘l harakati ko‘krak qarshisida), so‘ngra grafika tariqasida (chapdan o‘ngga, gorizontal holatida), bu almashuvni flanelegrafda ko‘rsatish uzun va kalta chiziqlar bilan bajarish maqsadga muvofiqdir.

Kuy - tonallikni eshitish qobiliyatini shakllanishi, tonikani tez topa olish uchun, ashula aytish ijodini rivojlantirishiga qaratilgan. Ashula - mashqlarni muntazam qo‘llash (bir kvartalda 6-7 martadan kam bo‘lmagan holda), pedagoglarga turg‘un ashula aytish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu ko‘nikmalar ashulalarni o‘rganishda mustahkamlanib takomillashib boradi. “Dastur...” ni murakkab vazifalaridan biri- bu “tarbiyachi bilan hamkorlikda musiqa jo‘rligisiz ashula ayta olish” amaliyot natijalariga ko‘ra bu talab tez-tez bajarilmaydi. Qoidaga asosan bolalar bilan qo‘shiq aytishni o‘rganish, kattalar musiqiy rahbar yoki tarbiyayachi bilan birgalikda, musiqa jo‘rligida o‘rganiladi. Musiqa rahbari bolalarni tinglab, boshlang‘ich bosqichda ashulani butunlay ijro etib beradi va oxirgi bosqichda yana bir marta qaytaradi. Bunda bolalar uchun noqulay vaziyatlar yuzaga keladi, ular qo‘shiq aytish sifatini nazorat qila olmaydilar. Ular xor bo‘lib kuylaganda bir-birlarini va o‘zlarini eshitmaydilar.

Bolalarda eshitish diqqat-e’tiborligini faolligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish hissiyoti, vokal-eshitish koordinatsiyalarni turg‘unligi bilimlari shakllanmaydi. Mustaqil qo‘shiq ijro etish. Bu narsalarga o‘rgatish esa, zarur hisoblanadi.

Qo‘shiq aytishni o‘rganishda, bolalarga boshlang‘ich bosqichida fortepiono jo‘rligida ijro etish taklif etiladi, so‘ngra butun qo‘shiq musiqa jo‘rligida ijro etiladi, keyin o‘qituvchi yordamida va nihoyat mustaqil akapellada ijro etish amalga oshiriladi. III-sinfda bu vazifa kichik qo‘shiqlar yordamida o‘z yechimini topadi. Bundan tashqari metallofon jo‘rligida ashula aytish uslubi

taklif etiladi. Metallofonni keskin ajraluvchi va yuzaki jaranglashi, bolalarni jo‘rliksiz qo‘shiq aytish shartlariga yaqinlashtiradi.

Fortepionodan nisbatan uzoqlikda turib guruh bilan, kichik guruhlar va individual ravishda turib ashula aytish ham foydalidir. Bunday ijroda bolalar o‘zlarini yaxshi eshitadilar. Bunda yaxshi o‘zlashtirilgan kichik ashulalar, alohida musiqiy jumlalar yoki baytlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga sof qo‘shiq ayta olmagan bolalarga e’tibor berish zarur. Ularni qo‘shiqlarini yaxshi ayta oladigan bolalar orasiga joylashtirish kerak.

Mashg‘ulot davomida bolalarni quyidagicha joylashtirish zarur: birinchi qatorga rahbar yoniga eshitish qobiliyati yomon bo‘lgan bolalar o‘tkaziladi ikkinchi qatorga qo‘shiq aytish ko‘nikmasi turg‘un bo‘lmagan bolalar va uchinchi qatorga-intonatsiyasi toza, tabiiy kuylaydigan bolalar joylashtiriladi. Har bir bolani individual qo‘shiq aytish darajasini musiqiy jumlalar (“zanjirlar”) orqali aniqlanadi. Bundan tashqari bu usul bolalarda to‘g‘ri nafas olishni shakllanishiga yordam beradi.

O‘quvchilar bilan xohlagan qo‘shiqni o‘rgana boshlash jarayoni, qo‘shiqni anglashdan boshlanadi, ya’ni birinchi marta ashula ifodali, to‘liq akkompanement bilan ijro etilishi zarur. Bolalarni diqqat-e’tiborini qo‘shiqni mazmuniga, uni tavsifiga, tasavvuriga e’tibor berishi zarur. Ashulani o‘rganishni boshlashdan oldin bolalarni kichik guruhlari bilan o‘rganish jarayonini qiyin lahzalarini o‘yin tarzida o‘rganib chiqish zarur. Bunday topshiriqlar har bir bolani qobiliyatini o‘rganishga yordam beradi. Olingan ega bo‘lgan ko‘nikmalarni bolalar mustaqil faoliyatda mustahkamlaydilar, eshitish qobiliyatlariga asosan tanish ashulalarni tanlaydilar. Bolalarni har tomonlama va musiqiy rivojlanishi uchun qo‘shiqli o‘yinlar katta ahamiyatga ega. O‘yin sharoiti bolalarda qo‘shiqqa bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, qo‘shiq kayfiyatini va mazmunini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, qo‘shiqli o‘yinlar-bu munosabatlarni jamoa ko‘rinishidagi shaklidir, u bolalarda o‘zaro do‘stona munosabatlarini, ongli intizomni tarbiyalaydi, chunki har bir bola o‘yin qoidalariga buysinishi va ularni aniq bajarishi zarur.

Fantaziya, tasavvur, ijodiyot bolalarni har bir o‘yinida ishtirok etadi. Musiqa ijrosisiz, o‘zlarini shaxsiy ijrosi ostida o‘ynash imkoniyatini bo‘lishi, bu o‘yinlarni nisbatan qadrli musiqaga aylantiradi. Ashulali o‘yinlar musiqa darslarida o‘rganiladi. Oldin qo‘shiq o‘rganilib, keyin asta-sekinlik bilan har mashg‘ulotda qo‘shiq mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yin rivojlantiriladi, va nihoyat hamma bolalar o‘yinga jalb etiladilar.

Keyinroq, o‘yinni mustahkamlashda bolalarga qo‘shiq ostida, musiqa ijrosisiz o‘ynash imkoniyati beriladi, lekin bu erda ustoz yoki murabbiyni ovozi beladi, so‘ngra esa ular mustaqil ravishda qo‘shiq aytadilar va o‘ynaydilar. Qo‘shiqli o‘yinlarda bolalar akapella kuylashni bilishni mashq qiladilar eng muhimi tarbiyachini guruhda bolalarni o‘yinini qaytarishga intilishni yuzaga keltiruvchi muhit yaratishdir. Buning uchun ba’zida kerakli atributlar – qalpoqcha, niqoblarni kiritish kifoyadir.

O‘yin jarayonida paydo bo‘lgan his tuyg‘ular ta’siri ostida bola aniq qilib, kuyni, qo‘shiq matnini, eng asosiysi qo‘shiq kayfiyatini yetkazib berishga harakat qiladi. Shunday qilib qo‘shiq orqali bajariladigan o‘yinlar, ularni mustaqil ravishda qo‘shiq ijro etishlariga undaydi.

Bolalarning mustaqil musiqiy faoliyati nafaqat o‘yinli qo‘shiq ijro etganda namoyon bo‘ladi, balki syujet-rolga ega bo‘lgan “Musiqiy mashg‘ulot”, “Bayram konserti”, “Musiqiy dukon”, “Ayiqchani tug‘ilgan kuni” (qo‘g‘irchoqni) h.k o‘yinlarda ham aks etadi. Bunda bolalar o‘zlarini va o‘rtoqlari ijrosiga quloq soladilar. Noto‘g‘ri ijro etilgan qo‘shiq omadsizlikday qabul qilinadi, lekin u o‘zaro mehr-oqibat munosabatlarini tug‘diradi, do‘stiga qo‘shiqni to‘g‘ri ijro etishga yordam hissini uyg‘otadi. O‘yindagi umumiy ilhomlanish, ijro vaqtidagi xursandchilik, tartinchoq, uyatchan bolalarni ham faollashtiradi. Eng asosiy har bir bolada individual ijro etishga qiziqish uyg‘otish, bolalarda o‘z ustida ishlash paydo bo‘lishiga, uyatchanlikdan xalos bo‘lishga yordam berish zarur.

O‘quv yili davomida bolalar bilan 20 ga yaqin (va ko‘proq), turli shakl va mazmunga ega bo‘lgan qo‘shiqlar o‘rganiladi. Bular asosan ta’riflash, bayon

etish, o‘yin xususiyatiga ega bo‘lgan lirik, tantanali, qahramonlar haqidagi, g‘amgin va quvnoq qo‘shiqlardir. Asosiy xususiyatlardan biri- pedagog ijrosidagi bayonni badiiyligidir. Bolalarni qo‘shiq aytishga o‘rgatishni rejalashtirish zarur. Istiqbolli rejada mavjud sinfdagi bolalarni umumiy va musiqiy rivojlanishini inobatga olish tavsiya etiladi. Rejada “dasturni...” vazifalarini qo‘yidagi yo‘nalishlar: musiqani anglash, qo‘shiq aytish ko‘nikmalarini rivojlantirish, qo‘shiq aytishni o‘rnatish xususiyatlariga qarab aniqlanadi. Istiqbolli ish rejani 3 (kvartallar, bo‘yicha) 2 yoki 1 oyga mo‘ljallab tuzish mumkin.

Istiqbol ish rejasi bolalarni individual rivojlanishini inobatga olgan holda tuziladi; ya’ni har bir bolani boshlang‘ich bosqichda qo‘shiq aytish diapazonini belgilash va uni o‘quv ishini o‘rtasi va oxirida aniqlash, qo‘shiq aytish ko‘nikmalarini shakllanishini (tovush hosil qilinishi, ma’ruza, ifodalilik, musiqa ijrosisiz qo‘shiq ayta-olish va h.k) darajasini belgilash, kalendarga asosan qo‘yidagilar rejalashtirladi: frontal mashg‘ulotlar (kunining birinchi yarmida), musiqiy didaktik o‘yinlar, musiqiy tovush va ovozni rivojlanishiga qaratilgan mashqlar, qo‘shiq aytish bilan bajariladigan o‘yinlar (kunning ikkinchi yarmida).

Mashg‘ulotlarni rejalashtirganda (haftada ikki marta) qo‘shiqni o‘rganish bosqichini inobatga olgan holda dastur mazmuni aniqlanadi, ijodiy topshiriqlar va mashqlarga nisbatan metodik usullar va vazifalar belgilanadi. Kalendar rejalashtirishni ketma-ketlik usullarini ko‘rib chiqamiz (6-mashg‘ulotga muljallangan). Bu reja qo‘shiq aytish bo‘yicha bo‘lib-uning lavhalari musiqiy mashg‘ulotlarni umumiy kalendar rejasidan.

Pedagogik kasb va pedagogik mahoratga faqat individual - shaxsiy darajada ega bo‘lish mumkin, chunki barcha psixologik - pedagogik va boshqa bilimlar majmui sub’ekt tomonidan shaxsan egallanishi zarur. Aynan shu tomonlarni zamonaviy pedagogik ta’lim inobatga olmaydi.

Musiqa o‘qituvchisining kasbga oid tayyorgarligi, xozirgi kunga qadar pedagogik faoliyatni olib borish tizimini shakllantirmadi. Talaba

tayyorlanayotgan pedagogik faoliyat natijasida bir-biri bilan sust bog‘langan qator funksional harakatlarga bo‘linadi. Agar pedagogik ta’lim asosiga bir butunlik bilan yondashilsa, bu to‘siqni yengish mumkin.

Pedagogik jarayonning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun butun tizim qaysi maqsadlarda tuzilganligini aniqlab olish zarur. Dasturiy maqsadli yondashish muammosi yuzaga keladi. Unga asosan o‘qituvchi shaxsiyati modeli joriy etiluvchi natijalar yuzaga keltiriladi.

Modellashtirish nafaqat musiqa o‘qituvchisini professional faoliyatini shaxsiy parametrlarini, balki imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Musiqa o‘qituvchisi modeli “asosi” sifatida uning professiogrammasi, ya’ni me’yoriy modelini asosini tashkil etuvchi, kvalifikatsiyasiga qaraladi. Kvalifikatsion (malakaviy) tavsif-davlat xujjati bo‘lib, unda o‘qituvchiga nisbatan umumiy talablarni aniqlab beriladi. Shunga ko‘ra me’yoriy model professional ta’lim va tarbiyani mazmuni maqsadini zarur bilim, ko‘nikma va shaxs xususiyatlarini talab etuvchi darajaga o‘tkazishga yordam beradi. Hozirgi kunda ishlab chiqilgan professiogramma va o‘qituvchini malakaviy tavsifi musiqa o‘qituvchisini prfessional faoliyatini to‘liq aks ettirmaydi. Bu holat ularni musiqa o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliygohlarni o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llashda ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mutaxassis shaxsini umumiy modeli haqidagi tasavvurni quyidagilarda ko‘rish mumkin.

Bugungi kun mutaxassisi zamonaviy iqtisodiy fikrlash, boshqaruv ko‘nikmalari, tashkiliy va tarbiyaviy ishlar, o‘z kasbiy faoliyatida axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash, yuqori umumiy madaniyat va xorijiy tillarni bilishi zarur. Uni tashabbuskorlik, javobgarlik, o‘z bilimlarini doimo yangilab turishga ehtiyoj, novatorlik qarorlarini dadil qabul qilib, ularni hayotga tadbiq eta olish kabi xislatlar ajratib turishi lozim.

O‘qituvchining kasbiy ko‘rinishini asosiy xususiyatlarini g‘oyaviy va ma’naviy tozalik, talabchanlik va mexribonlik tashkil etadi. O‘qituvchi faoliyatini shaxsiy tomonlariga me’yoriy faoliyat kabi ta’rif berilmaydi.

O‘qituvchi faol doirasini kengaytiruvchi, pedagogik faoliyatda o‘z hayotiy faoliyat usullarini joriy etib, o‘z oldiga vazifalar qo‘ya oluvchi va ularni ochishda zimmasiga javobgarlikni oluvchi sub’ektga aylanadi. Gap, ichki determinatsiyani faollik darajasi haqida borayapdi. Unga asosan o‘qituvchi hosil bo‘lgan vaziyatlardan qat’iy nazar mustaqil xarakat qila olishi, o‘z professional xarakati va faoliyatini strategiyasini ishlab chiqishi mumkin.

Ega bo‘lgan bilimlardan faqat pedagogik tizimdagi shaxs tarbiyasiga qaratilgan ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bunday o‘qishdan va maktabdan tashqari amaliyotlarda o‘nlab qo‘llaniladi. Lekin ularni qo‘llashda va tashkil etishda ilmiy pedagogik faoliyatda ta’riflangan yuzlab bilimlar emas, balki bir necha umumlashtirilgan bilimlar qo‘llaniladi.

Ularga: -shaxs va jamoani shakllanish darajasini aniqlashga oid bilimlar; o‘qituvchilar faoliyatini rivojlanishiga oid vazifalar va qo‘ya olish bilimi;

-qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun vositalar tanlash va ularni qo‘llashni bilish; olingan natijalarga ega bo‘lish, ularni qo‘yilgan maqsadlar bilan taqqoslash, ular orasidagi farqlarni tushuntirib bera olish bilimlari kiradi.

Bu o‘nlab umumlashgan bilimlar tarkibiga boshqa o‘nlab, aniq pedagogik vaziyatlarda qo‘llaniladigan bilimlar kiradi. Har bir pedagog oliygohda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonini bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy va ijtimoiy shakllanishni maqsad qilib olishi zarur.

Talabalarni kasb egallash jarayoni imkon qadar bo‘lajak o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini modellashtirish imkoniyati tug‘iladi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchi professional musiqiy tayyorgarlik jarayonida birlamchi amaliy tajribaga ega bo‘ladi. Shu maqsadda musiqa o‘qituvchisini professional faoliyatini o‘ziga xos nostandart minimal vazifalarni ajratish mantiqqa muvofiqdir. Bu vazifalar o‘qituvchini tayyorlash jarayonida ta’lim funksiyalarini bajaradi. Bu faoliyat davomida talabalarga ta’lim berish uchun kasbiy pedagogik vazifalarga kiruvchi o‘quv vazifalarni tuzilishi bevosita pedagogika, psixologiya, musiqiy kasbiy ta’limni didaktik dasturlar va pedagogik

vaziyatlarni va musiqadan individual mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubi bilan bog‘liqdir.

Pedagogik ta’limni zamonaviy strategiyasi umumta’lim va kasbga oid maktablar joriy talablarni aniqlab olishlari va uni rivojlanishini kuchaytiruvchi tendensiyalarini oldin ko‘ra olishlari zarur. Zamonaviy sharoitlarda pedagogik rivojlanishni tavsiflovchi tendensiyalar qatorida umumta’lim va kasbga oid maktab o‘qituvchilarini faoliyatida jamoatchilikni rivojlanishini kuchaytirish alohida diqqat e’tiborga oid va pedagogik mehnatni bo‘lish tizimini murakkablashtirish va uning ichki kasbga oid ixtisosligini rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Misol uchun maktab-kompleks va ijtimoiy-pedagogik markazlarni kuchaytirishi, kasbga oid texnik ta’lim va bolalar muassasalari bilan bog‘liq o‘qituvchi kadrlarni qayta taqsimlash, xalq ta’limi tizimida psixologik-pedagogik hurmatini, kasbga yo‘naltirish komp’yuterda ishlashni ta’minlovchi kabinetlarini tashkil etish shular jumlasidandir.

Zudlik bilan bu pedagoik kadrlarni tayyorlash tizimidagi tendensiyalarni inobatga oluvchi imkoniyatlarni qidirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.I.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi” Toshkent O‘zbekiston 1997 yil.
2.H.Nurmatov “Musiqa va estetik madaniyat” metodik tavsiyanoma. Toshkent TDPU 1992 yil
3. H.Nurmatov, N.Norxo‘jaev “Musiqa alifbosi” birinchi sinf musiqa darsligi Toshkent O‘qituvchi 2004 yil
4. A.Xasanov “Musiqa va tarbiya” Toshkent O‘qituvchi 1996 yil
5.D.Sopirova “Musiqiy va nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni takomillashtirish” Toshkent fan va texnologiklar markazi bosmaxonasi 2005 yil
6.G.Sharipova “Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish metodikasi” Toshkent TDPU 2004 yil